

INSTITUTIMIZ DOKTORANT VA YOSH OLIMLARI DIQQATIGA!

INSTITUTIMIZ DOKTORANT VA YOSH OLIMLARI DIQQATIGA!

Leybniz nomli qishloq xo'jaligini landshaftlari ilmiy-tadqiqot markazi (ZALF, Germaniya) Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida joriy yilning **29 apreldan 5 maygacha** bo'lib o'tadigan **“Sug'orma dehqonchilikda suv-energetika-oziq-ovqat (Water-Energy-Food nexus) xavfsizligi barqarorligini baholash: Markaziy Osiyoda fanlararo yondashuv”** mavzusidagi **“Xalqaro yozgi maktab-2019”** da ishtirok etishga taklif qiladi. Ushbu yozgi maktabning asosiy maqsadi – zamonaviy tadqiqot uslublarini o'rganish, yangi bilimlar olish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, innovatsion texnologiya va tadqiqot usullarini ishlab chiqishni o'rganishdan iborat.

Yozgi maktabda ishtirok etishni istagan tadqiqotchilar wefca2019@zalf.de elektron pochtaga ingliz tilida ariza topshirishlari kerak (1 ta yagona pdf-fayl, maksimal 3 MB).

Hujjatlar to'plamiga quyidagilar kiradi:

1. Motivation letter: Yozgi maktabga qatnashi haqida qisqacha bayon (maksimal 1 bet);
2. Research abstract: O'z ilmiy tadqiqot loyihasining qisqacha tavsifi (400 so'z);
3. CV: Tarjimai hol;
4. Ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlaydigan xujjat (IELTS 5.0 ball yoki undan yuqori bo'lganlar ustunlikka ega).

Arizalarni qabul qilishning yakuniy sanasi - **2019 yil 28 fevral**. Ishtirokchilarning natijalari 2019 yil 15 martgacha e'lon qilinadi.

Savollaringiz bo'lsa, **Dr. Ahmad Hamidov** bilan bog'laning (wefca2019@zalf.de).

Batafsil ma'lumotlarni quyidagi sayt orqali olishingiz mumkin:

<https://communications.ext.zalf.de/sites/summer-school-wefca/SitePages/Home.aspx>

